

Buxoro viloyatida Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026- yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 24 948 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024- yil yanvar-dekabr holatiga, birlik	2025-yil yanvar-dekabr holatiga, birlik
Buxoro sh.	6 113	6 797
G'ijduvon tumani	2 365	2 549
Romitan tumani	2 039	2 317
Jondor tumani	1 851	2 083
Buxoro tumani	1 731	1 911
Vobkent tumani	1 417	1 514
Shofirkon tumani	1 305	1 511
Kogon tumani	1 281	1 390
Peshku tumani	1 156	1 324
Qorako'l tumani	1 160	1 103
Olot tumani	923	1 042
Kogon sh	791	866
Qorovulbozor tumani	483	541

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025- yilning yanvar-dekabrida 4 401 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 361 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 976 ta, sanoatda 411 ta, boshqa xizmatlarda 505 tani tashkil etilgan.

maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar bixillastirildi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2025- yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 1 361 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 976 ta, sanoatda 411 ta va boshqa xizmatlarda 505 tani tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2024- yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Buxoro sh.	1 010	1 189
Romitan tumani	450	435
G'ijduvon tumani	405	375
Qorako'l tumani	343	356
Buxoro tumani	395	332
Shofirkon tumani	348	327
Jondor tumani	421	287
Kogon tumani	310	245
Vobkent tumani	377	229
Peshku tumani	310	212
Olot tumani	353	180
Kogon sh	138	141
Qorovulbozor tumani	103	93

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2025- yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 71,0 % ni tashkil qilib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan 1.4 % kamaydi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 92,0%, bundan tashqari qurilishda – 84,0 %, xizmatlar sohasida – 71,0 % va sanoatda – 42,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 22 952,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 42,9 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 105,9 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Shofirkon tumani (90,8%), Jondor tumani (89,7%), Vobkent tumani (79,2 %) Kogon shahar (76,8 %) va Kogon tumani (74,2 %) hissasiga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi



2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 16 101,8 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 84,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 111,7 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Peshku tumani (96,5 %), Kogon tumani (95,9 %) va Buxoro tumani (95,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 24 407,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 56,9 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 83,9% ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi G'ijduvon (94,2 %), Olot (93,5 %), Peshku (93,3 %) va Shofirkon (91,3 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 44 451,2 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 92,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,3 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahari (96,2 %), Kogon tumani (95,2 %), Olot tumani (95,2 %), G'ijduvon tumini (94,7 %) va Buxoro tumani (94,4 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 23 935,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 92,7 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Qorovulbozor tumani (99,7 %), Rometan tumani (99,6 %), Buxoro tumani (99,6%), va Vobkent tumani (99,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025- yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 30 280,3 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 71,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 116,8 % ni tashkil qildi.

Tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Kogon tumani (85,7 %), Olot tumani (85,2 %), G'ijduvon tumani (84,1 %) va Buxoro tumani (83,1 %) tumanlariga to'g'ri keldi.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



2025- yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 215,4 million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 52,1 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Kogon shaxrida – 98,9 %, Romitan tumanida – 98,2 % Buxoro tumanida – 94,1 % va Peshku tumanida – 89,8 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025- yilning yanvar-sentabirida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 673,0 million AQSH dollarini yoki jami importning 52,9 % ini tashkil etdi.

2025- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qorako'l tumanida – 99,6 %, Kogon shahrida – 99,4 %, Shofirkon tumanida–98,7%, Vobkent tumanida–97,0% va Jondor tumanida–96,3% ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025- yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 93,4 % ni tashkil etdi. 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,6 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 82,9 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,0 % ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,7 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,5% ni tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 98,9 % ni tashkil etib, 2024- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 41,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida esa 32,3 % ga yetgan yoki 2021- yilning yanvar-dekabrida nisbatan 9,2 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 48,5 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 63,5 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021- yilning yanvar-dekabrida 10,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 4,2 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 46,9 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 42,8 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021- yilning yanvar-dekabrida 49,8 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025- yilning yanvar-dekabrida 55,0 % yoki 5,2 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrida 3,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025- yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 2,2 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-dekabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025- yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlarda – 37,1 % savdo sohasida – 31,6 % ni, qurulish sohasida – 29,8 % ni va ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 71,1 % ni, sanoatda – 67,3 % ni va qurulish sohasida – 66,0 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, sanoat – 4,6 % ni, savdo sohasida – 4,3 % va qurulish sohasida – 4,3 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



V. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>

<https://Buxstat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoqlar-bo-yicha-ulushi.pdf>